

AYOLLARNI ARDOQLAGAN ADIBLAR

Kamolova Sarvinoz O‘rol qizi

Alfraganus universiteti “Xalqaro munosabatlar”

yo’nalishi, 3-kurs talabasi

kamolovasarvinoz33@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zamonaviy o’zbek adabiyotida, o’tmishda ayollarga bo’lgan munosabatlar, badiiy asarlarda ayol obrazining talqin etilishi bilan bog’liq ma’lumotlar aks ettirilgan. Shuningdek, turkiy adabiyot, o’zbek adabiyoti va jahon adabiyotida ayol obrazining ifodalanish xususiyatlari o’rganiladi.

Kalit so’zlar: Ayol obrazi, adabiyot, ardoqlash, badiiy ifoda, ona, muhabbat, fidoyilik, ijod, milliy qadriyat, ayol sha’ni.

KIRISH

Adabiyot – bu inson qalbi va jamiyat ko‘zgusi. Uning eng go‘zal timsollaridan biri – **ayol obrazidir**. Ayolni ona, yor, fidoyi, sabr timsoli sifatida tasvirlash an’analari o’zbek va jahon adabiyotida chuqur ildiz otgan. Adiblar o‘z asarlari orqali ayolga yuksak ehtirom bilan yondashgan, uning mehr-muhabbat, sabr-toqat, go‘zallik va hayot yaratuvchisi sifatidagi fazilatlarini ardoqlaganlar. Bu esa nafaqat san’atning, balki insonparvarlikning ham bir ko‘rinishidir. Misol uchun, O’rta asrlar ayollar uchun juda ham og’ir bo’lgan. Yevropada qiz bolani har qanday o’tkinchi yo’lovchi joduda ayblashi mumkin edi. XIV asrdan XVIII asrgacha bo’lgan davrda Evropada “jodugar”likda ayblanib taxminan 40-50 mingta inson olovda yoqib yuborilgan. Ularning ko’philagini esa xotin-qizlar tashkil qilgan. 1613 yili Niderlandiyada mashxur Rumor sudi bo’lib o’tdi va unda butun Evropada misli ko’rilmagan darajada ko’proq “jodugar”lar yoqib yuborildi. Birinchi bo’lib gulkanga yangi tug’ilgan chaqaloqlarni la’natlashda ayiblangan doya ayol Entyen Djillis tashlangan va shunga o’xshash bir qancha yolg’on ayblovlar bilan jami 63 nafar ayol olovda yondirildi. Bundan tashqari johiliya davrida ham ayollarga nisbatan g’oyatda yomon munosabatda bo’lingan. Yangi tug’ilgan qiz farzandlar tiriklayin ko’milgan. Ayollarning hech qanday huquq va erkinliklari bo’lmagan, ularga past nazar bilan qaralgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turkiy xalqlar adabiyotida ayol timsoli qadimdan ulug’langan. Jumladan, **Yusuf Xos Hojib** o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida **adil hukmdorning suyukli onasi**, donishmand ayol siyemosini yaratgan. Ayol – donolik, sabr, tarbiya, sadoqat timsoli sifatida ko’rsatiladi.

Alisher Navoiy ijodida ayol go‘zalligi nafaqat tashqi joziba, balki ruhiy komilllik darajasida tasvirlanadi. Navoiy asarlarida ayol har doim halollik, sabr-toqat, mehr va

ezgulik timsolidir. “Layli va Majnun” dostonida Layli timsoli or-nomus, visolga sadoqat va fidoiy sevgi ramziga aylangan. Abdulla Qahhor ijodida “O’g“ri”, “Bemor”, “Anor”, “Dahshat”, “Boshsiz odam” kabi hikoyalar alohida o‘rin tut-adi. O’tmishdagi hayot haqidagi mazkur hikoyalar o‘zbek ad-abiyotining asl asarlari qatorida turadi. Ushbu hikoyalar ha-jman kichkina bo‘lsa-da, ular mavjud turmush hodisalari aniq chizib ko‘rsatilganday taassurot qoldiradi. Abdulla Qahhor ulug‘ rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexov asarlari ahamiyati to‘g‘risida □kr bildirib: “Uning chertma, jaranglab turgan “kaftdekkina” hikoyalari o‘zining

18chiroyliligi, haqqoniyligi va turmushni haqqoniy aks etirishi bilan o‘quvchini o‘ziga asir qiladi. Bu hikoyalarning har biri Chexov zamonasidagi Rusiya hayotining bir parchasi. Uning butun ijodidan butun Rusiyani ko‘rish mumkin. Uning bu-tun ijodi o‘tmishni qoralab yozgan aybnomadir” deydi1. Ab-dulla Qahhorning asarlari ham shunday salmoqqa ega. Jum-ladan, yozuvchining “Anor”, “Bemor”, “O’g‘ri”, “Dahshat” kabi hikoyalarida turmushning haqqoniy manzaralari, nochor kishilarning ayanchli ahvoli ko‘rsatiladi. “Chertma, jaranglab turgan ushbu “kaftdekkina” hikoyalarda ayollar obrazi ham alohida ajralib turadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi globallashuv jarayonida ham jamiyatimiz hayotida xalqimizning ma’naviyati, siyosiy hamda diniy savodxonligini oshirish davrning eng katta talabi bo‘lib qolmoqda. Bu borada esa ayollar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. “Bugungi kunimizda inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida ayollar huquqlari, erkak va ayol o‘rtasidagi ijtimoiy va huquqiy tenglik masalasi mavzuning dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Chunki hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mintaqalari ayollarning jamiyatdagi mavqeい, ular huquqlarining poymol etilayotganligi bilan bog’liq jiddiy muammolar yuzaga kelyapti”. 2

O‘zbek adabiyotida ayol mavzusi dolzarb va keng qamrovli bo‘lib, adabiyotshunoslikda bu mavzuga oid ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Jumladan:

• **G‘ulom, Hamid Olimjon, Zulfiya, E. Vohidov** asarlarida ayol – go‘zallik, mehr, sabr timsoli sifatida yuksak baholangan.

• **A. Oripov** ijodida ona obrazining milliy qadriyatlar bilan bog‘liq ifodasi o‘ziga xos.

• Turkiy adabiyotda Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariylar ayolni ijtimoiy barkamollik ramzi sifatida ko‘rsatgan.

• Jahon adabiyotida esa ayolning fojiali, sevgi va mustaqillik ramzi sifatidagi tasvirlar keng tarqalgan.

XULOSA

Adabiyotda ayol obrazining ulug‘lanishi bu – insoniy qadriyatlarni yuksak baholashdir. Ayol – jamiyatni tarbiyalovchi, hayotga go‘zallik olib kiruvchi ilohiy mavjudot sifatida ko‘rsatilgan. Adiblar ijodi orqali yosh avlod ongiga ayolga nisbatan

hurmat, sadoqat, ehtirom singdiriladi. Bu esa madaniyatimiz, milliy tafakkurimiz va ma’naviy olamimizning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Bugungi kunda ham ayol timsoli zamonaviy adabiyotda o‘z aksini topmoqda va bu holat xalq ma’naviy hayotining uzviy davomidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qahhor A. Asarlar. Besh jildlik. 1-jild. Sarob: Roman. Hikoyalar. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. –336 b.
2. Lev Tolstoy. “Anna Karenina”.
3. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME “Badiiy asarlarda ayollik ibrati”2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601 Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 536
4. https://refseek.com/381612583_Lirik_asarlarda_ayol_obrazi